“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



Ma’naviy zarar yuridik shaxsning buzilgan huquqini himoya qilish usuli sifatida: o‘zbekiston huquqi va xorijiy tajriba kesimida ilmiy-huquqiy tahlil

Bobur Koryog‘diyev,
TDYU Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti Tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi
Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: boburkoryogdiev@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada yuridik shaxs foydasiga ma'naviy zarar undirish masalasi O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligi, milliy sud amaliyoti va xorijiy huquqiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, yuridik shaxs inson kabi jismoniy og‘riq yoki ruhiy iztirobni his qila olmaydi, biroq u ishchanlik obro‘si, mijozlar ishonchi, hamkorlar oldidagi reputatsiya, boshqaruv barqarorligi va bozor ishtirokchisi sifatidagi ijtimoiy-huquqiy mavqeyidan mahrum bo‘lishi mumkin. Shu bois yuridik shaxsga nisbatan klassik ma'nodagi “ma'naviy zarar” modelini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash nazariy jihatdan bahsli, amaliy jihatdan esa noaniq oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Калит сўзлар. yuridik shaxs, ma'naviy zarar, nomulkiy zarar, ishchanlik obro‘si, fuqarolik javobgarligi, Komingersoll ishi.

Аннотация. В данной статье вопрос взыскания морального вреда в пользу юридического лица анализируется на основе гражданского законодательства Узбекистана, национальной судебной практики и зарубежных правовых подходов. Основная идея исследования заключается в том, что юридическое лицо не может испытывать физическую боль или психологические страдания, как человек, но оно может лишиться деловой репутации, доверия клиентов, репутации перед партнерами, устойчивости управления и социально-правового статуса участника рынка. Поэтому прямое применение модели "морального вреда" в классическом смысле к юридическому лицу может привести к теоретически спорным, а практически неопределенным последствиям.

Ключевые слова. юридическое лицо, моральный вред, неимущественный вред, деловая репутация, гражданская ответственность, дело Комингерсолла.

Annotation. This article analyzes the issue of compensation for moral damages in favor of a legal entity based on Uzbekistan's civil legislation,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

national judicial practice, and foreign legal approaches. The main idea of the study is that a legal entity cannot experience physical pain or mental distress like a human, but it can lose its business reputation, customer trust, reputation with partners, management stability, and socio-legal status as a market participant. Therefore, the direct application of the "moral harm" model in the classical sense to a legal entity can lead to theoretically controversial and practically ambiguous consequences.

Keywords. legal entity, moral damages, non-pecuniary damages, business reputation, civil liability, Comingersoll case.

Kirish

Raqamli axborot muhitida yuridik shaxsning obroʻsi uning mol-mulki, shartnomaviy portfeli yoki ustav kapitali kabi iqtisodiy ahamiyatga ega aktivga aylangan. Birgina asossiz xabar, ijtimoiy tarmoqdagi yolgʻon post yoki ommaviy axborot vositasida tarqatilgan notoʻgʻri maʼlumot korxona yoki tashkilotga nisbatan ishonchni susaytirishi, hamkorlik munosabatlarini izdan chiqarishi, mijozlar oqimini kamaytirishi, investorlar va jamoatchilik nigohida uning huquqiy-iqtisodiy mavqeyini zaiflashtirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, yuridik shaxsning ishchanlik obroʻsi faqat mavhum nomoddiy qadriyat emas, balki real iqtisodiy, tashkiliy va institutsional ahamiyatga ega huquqiy neʼmat hamdir.

Biroq masalaning murakkab jihati shundaki, “maʼnaviy zarar” instituti anʼanaviy ravishda inson shaxsi bilan bogʻliq. Maʼnaviy zarar deyilganda koʻpincha shaxsning ruhiy azobi, jismoniy ogʻrigʻi, ichki kechinmalari, shaxsiy qadr-qimmati yoki shaʼniga yetkazilgan nomoddiy zarar tushuniladi. Yuridik shaxs esa biologik mavjudot emas; u insonga oʻxshab ogʻriq sezmaydi, ruhiy iztirob chekmaydi, shaxsiy kechinmaga ega emas. Shunga qaramay, u mustaqil huquq subyekti sifatida oʻz nomiga, ishchanlik obroʻsiga, firma nomiga, iqtisodiy va ijtimoiy ishonchlilikka ega. Demak, asosiy savol quyidagicha qoʻyilishi kerak: yuridik shaxsga “maʼnaviy zarar” yetkazilishi mumkinmi yoki yuridik shaxsga nisbatan alohida “ishchanlik obroʻsiga nisbatan nomulkiy zarar” kategoriyasini ishlab chiqish lozimmi?

Ushbu maqolaning maqsadi yuridik shaxs foydasiga maʼnaviy zarar undirish masalasini Oʻzbekiston fuqarolik qonunchiligi, milliy sud amaliyoti, Yevropa inson huquqlari sudi yondashuvi, ingliz-german konservativ modeli va Polsha Oliy sudining 2023-yilgi pozitsiyasi asosida tahlil qilishdan iborat.

Oʻzbekiston huquqida ishchanlik obroʻsi va maʼnaviy zarar oʻrtasidagi nisbat

Oʻzbekiston fuqarolik qonunchiligi yuridik shaxsning ishchanlik obroʻsini himoya qilinadigan nomoddiy neʼmatlar doirasida tan oladi. Fuqarolik kodeksining 99-moddasida ishchanlik obroʻsi shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy neʼmatlar qatorida koʻrsatilgan. FKning 100-moddasiga koʻra, fuqaro oʻz shaʼni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obroʻsiga putur yetkazuvchi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ma'lumotlar yuzasidan, agar bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to‘g‘ri kelishini isbotlay olmasa, sud orqali raddiya talab qilishga haqli. Muhim jihati shundaki, 100-moddaning oxirgi qismida fuqaroning ishchanlik obro‘sini himoya qilish haqidagi qoida yuridik shaxsning ishchanlik obro‘sini himoya qilishga nisbatan ham tegishli yo‘sinda tatbiq etilishi belgilangan[1].

Mazkur norma yuridik shaxsning ishchanlik obro‘si mustaqil huquqiy himoya obyekti ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, FK 100-moddasi yuridik shaxs foydasiga aynan “ma'naviy zarar” undirilishi mumkinligi haqida bevosita va aniq qoida bermaydi. Norma matnida fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar rad etilishi, shuningdek zararlar va ma'naviy ziyon qoplanishi mumkinligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, yuridik shaxsga nisbatan qo‘llanilishi kerak bo‘lgan qism aynan “ishchanlik obro‘sini himoya qilish” qoidasidir. Bu esa ma'naviy zarar institutini yuridik shaxsga avtomatik ravishda ko‘chirish uchun yetarli emas.

FKning 1021-moddasi ma'naviy zararni qoplashning umumiy asoslarini belgilaydi. Unga ko‘ra, ma'naviy zarar, qoida tariqasida, zarar yetkazuvchining aybi bo‘lgan taqdirda qoplanadi; biroq or-nomus, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘-e'tiborini haqoratlovchi ma'lumotlarni tarqatish tufayli zarar yetkazilgan hollarda zarar yetkazuvchining aybidan qat'i nazar qoplanishi mumkin. FK 1022-moddasi esa ma'naviy zarar pul bilan qoplanishini, uning miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyati, zarar yetkazuvchining aybi darajasi, oqilonalik va adolatlilik mezonlari asosida aniqlanishini belgilaydi. Shu moddaning keyingi qismida jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyati ma'naviy zarar yetkazilgan haqiqiy holatlar va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olingan holda baholanishi ko‘rsatilgan.

Aynan shu yerda asosiy nazariy muammo yuzaga keladi. FK 1022-moddasidagi “jismoniy va ma'naviy azoblar”, “jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari” kabi mezonlar mazmunan jismoniy shaxsga qaratilgan. Yuridik shaxsda esa shaxsiy kechinma, ruhiy azob, og‘riq yoki emotsional holat mavjud emas, bo‘la olmaydi ham. Shuning uchun yuridik shaxs foydasiga klassik ma'nodagi ma'naviy zarar undirishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tan olish, amaldagi norma matnini kengaytirib talqin qilishni talab qiladi. Bunday kengaytiruvchi talqin esa qonuniylik, huquqiy aniqlik va javobgarlik chegaralarini oldindan bilish prinsiplariga mos kelmasligi mumkin.

Oliy sud Plenumining 2025-yil 24-noyabrdagi 21-son qarori shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne'matlarni himoya qilish bo‘yicha muhim tushuntirishlarni beradi. Qarorda sudlar FKning 99 va 100-moddalarida mustahkamlangan huquqlar buzilishi bilan bog‘liq ishlarni ko‘rishda shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish zaruratidan kelib chiqishi lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, ma'naviy zarar miqdorini belgilashda material mazmuni, yolg‘on ma'lumot tarqatgan shaxs yoki OAVning ayb

darajasi, auditoriya hajmi, da'vogarning jamiyatda tutgan o‘rni, erkin fikr bildirish bilan reputatsiyani himoya qilish o‘rtasidagi muvozanat kabi omillar hisobga olinishi belgilangan.

Ushbu mezonlar yuridik shaxslarning ishchanlik obro‘sini himoya qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Biroq Plenum qarori ham yuridik shaxs foydasiga klassik “ma'naviy zarar” undirish mumkinligi haqida qat'iy va alohida qoida bermaydi. Demak, amaldagi O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxs ishchanlik obro‘sini himoya qilishni, raddiya berishni, noto‘g‘ri axborotni olib tashlashni, tarqatishni to‘xtatishni va moddiy zararni qoplashni talab qilishi mumkin, biroq yuridik shaxs foydasiga insoniy azob-uqubat modeliga asoslangan ma'naviy zarar undirish masalasi yetarlicha aniqlashtirilmagan, degan xulosaga kelish mumkin.

2. Ma'naviy zarar institutining insonga xosligi va yuridik shaxs muammosi

B.Hamroqulov ma'naviy ziyonni qoplashga oid dissertatsiyasida O‘zbekiston huquqida ma'naviy zarar tushunchasining legal ta'rifi, uni isbotlash va miqdorini belgilash masalalarida aniq mezonlar yetishmasligini alohida ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, ma'naviy zarar bo‘yicha talab qilingan summa va sudlar tomonidan undirilgan summa o‘rtasidagi tafovutning katta bo‘lishi, avvalo, ma'naviy zarar mohiyatini tushunish va uning miqdorini aniqlash bo‘yicha aniq qoidalar mavjud emasligi bilan bog‘liq. Ruhiy azob yoki jismoniy og‘riqning nimada ifodalanishi, qanday dalillar bilan tasdiqlanishi va qanday usulda baholanishi masalasi hamon baholovchi kategoriyalar doirasida qolmoqda[2].

Mazkur ilmiy xulosa yuridik shaxsga nisbatan masalani yanada murakkablashtiradi. Agar jismoniy shaxsda ham ma'naviy zarar darajasini aniqlash qiyin bo‘lsa, yuridik shaxsda “ruhiy azob”ni aniqlash umuman mumkin emas. Demak, yuridik shaxsga ma'naviy zarar yetkazilganini asoslash uchun “insoniy kechinma” modelidan voz kechish zarur. Aks holda, yuridik shaxsga kompensatsiya berish huquqiy fantastikaga aylanadi, ya’ni sud aslida mavjud bo‘lmagan ruhiy holatni taxmin qiladi va uni pul bilan baholaydi.

Shu sababli yuridik shaxsga nisbatan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan zarar turi “ma'naviy azob” emas, balki “nomulkiy, reputatsion, institutsional zarar” sifatida tushunilishi kerak. Bunday zarar yuridik shaxsning ichki kechinmasiga emas, balki uning tashqi ijtimoiy-huquqiy mavqeyiga ko‘rsatilgan obyektiv salbiy ta'sirda namoyon bo‘ladi. Masalan, bozordagi ishonchning pasayishi, hamkorlarning shartnomaviy munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishi, mijozlar oqimining kamayishi, tashkilot faoliyatining izdan chiqishi, boshqaruv organlarining ortiqcha resurs sarflashga majbur bo‘lishi, brend va firma nomi atrofida salbiy fikrlarning shakllanishi shular jumlasidandir.

B.Hamroqulov tomonidan taklif etilgan oqilonalik, adolatlilik bilan bir qatorda mutanosiblik mezonini qo‘llash g‘oyasi aynan yuridik shaxsning ishchanlik obro‘siga nisbatan yetkazilgan

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

nomulkiy zararni baholashda ham metodologik asos bo‘la oladi. Chunki bu turdagi zarar avtomatik tarzda emas, balki buzilgan manfaatning ahamiyati, huquqbuzarlikning ko‘lami, tarqatilgan axborotning ta'siri va tovon miqdorining huquqiy oqibatlarga mutanosibligi asosida aniqlanishi kerak.

3. Xorijiy tajriba: yuridik shaxsning ishchanlik obro‘siga nisbatan yetkazilgan zararga oid modellar

Xorijiy tajribada yuridik shaxs foydasiga nomulkiy zarar undirish masalasi bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emas. Shunday ekan, shartli ravishda ular orasidan uchta asosiy modelni ajratish mumkin: **liberal**-yetkazilgan nomulkiy zararni tan oluvchi model, **konservativ**-inkor etuvchi model va **aralash**-obyektiv mezonlarga asoslangan model.

Birinchi model Yevropa inson huquqlari sudi amaliyotida ko‘rinadi. “Comingersoll SA kompaniyasining Portugaliyaga qarshi”[3] ishida Yevropa inson huquqlari sudi tijorat kompaniyasiga nomulkiy zarar uchun ma’naviy zarar berish mumkinligini tan olgan. Wilcox tahliliga ko‘ra, ushbu qaror kompaniyaning o‘zi ham reputatsiya, qaror qabul qilishdagi noaniqlik, boshqaruvdagi izdan chiqish kabi nomoddiy oqibatlardan bevosita bo‘lmasa ham bilvosita zarar ko‘rishi mumkinligi haqidagi yondashuvga asos bo‘lgan. Shu bilan birga, Wilcox ushbu masalaning nazariy jihatdan murakkabligini alohida qayd etib, huquq tizimlari kompaniyaga insonlarga xos huquqlarni tatbiq etishda izchillik, adolat va konseptual aniqlikni saqlashi zarur, degan fikrlarni qayd etib o‘tadi[4].

Ikkinchi model Germaniya va ingliz huquqiga xos ehtiyotkor yondashuvda namoyon bo‘ladi. Paulina Wyszyńska-Ślufińska tahliliga ko‘ra, Germaniya huquqida yuridik shaxslarning shaxsiy manfaatlari tan olinsa-da, ularga ma’naviy zarar uchun kompensatsiya berish odatda rad etiladi. Buning asosiy sababi shuki, yuridik shaxs psixikaga ega emas, og‘riq va ruhiy azobni his qilmaydi. Ingliz huquqida ham kompaniyaning yaxshi nomi iqtisodiy qiymatga ega ekani tan olinsa-da, kompensatsiya odatda iqtisodiy zarar, defamatsiya oqibatidagi real moliyaviy yo‘qotish yoki ishchanlik faoliyatiga yetkazilgan aniq salbiy ta'sir orqali asoslanadi[5].

Uchinchi model Polsha Oliy sudining 2023-yil 3-oktabrdagi III CZP 22/23-son qarorida ifodalangan. Mazkur qarorda Polsha Oliy sudi yuridik shaxs shaxsiy manfaatlari buzilgan taqdirda ma’naviy zarar uchun kompensatsiya talab qilishi mumkinligini tan olgan[6]. Biroq bu yondashuv ham bahsdan xoli emas. Wyszyńska-Ślufińska ushbu qaror nazariy jihatdan qiziqarli va amaliy jihatdan muhim bo‘lsa-da, sud asoslantiruvi ayrim savollarga javob berishdan ko‘ra yangi savollarni keltirib chiqarishini qayd etadi[5].

Polsha Oliy sudi yuridik shaxslar jismoniy yoki ruhiy azobni his qilmasligini tan oladi, ammo ular shaxsiy huquqlari buzilishi oqibatida pul bilan aniq o‘lchash qiyin bo‘lgan ma’naviy zarar ko‘rishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Sudga ko‘ra, bunday

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

zarar subyektiv kechinma emas, balki obyektiv mezonlar asosida aniqlanishi lozim. Bunday obyektiv mezonlar qatoriga yuridik shaxs faoliyatining odatdagi tartibda yuritilishiga to‘sqinlik qilinishi, uning obro‘siga putur yetkazilishi, tashkiliy faoliyati izdan chiqishi yoki shaxsiy manfaatlari bilan bog‘liq nomoddiy sohada salbiy oqibat yuzaga kelishi kabilarni kiritish mumkinligini ta’kidlaydi.

Mazkur yondashuv O‘zbekiston huquqi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki u yuridik shaxsga nisbatan ma'naviy zarar institutini sun'iy ravishda insoniy azobga bog‘lamaydi, balki yuridik shaxsning obyektiv nomulkiy manfaatlari buzilishi bilan asoslaydi. Biroq Polsha tajribasini to‘liq va mexanik ko‘chirib olish ham to‘g‘ri emas. O‘zbekiston huquqida FK 1022-moddasi hali ham “jismoniy va ma'naviy azoblar” mezoniga tayanadi. Shuning uchun O‘zbekiston uchun eng maqbul yechim — yuridik shaxs foydasiga klassik ma'naviy zarar institutini kengaytirish emas, balki alohida ishchanlik obro‘siga nisbatan nomulkiy zarar kategoriyasini shakllantirishdir.

4. O‘zbekiston sud amaliyoti: ishchanlik obro‘sini himoya qilish va ma'naviy zarar o‘rtasidagi amaliy farqlash

Taqdim etilgan sud amaliyoti ham O‘zbekiston huquqida ushbu masala amaliy jihatdan farqlanayotganini ko‘rsatadi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudining 2022-yil 25-noyabrdagi hal qiluv qarorida [7] “Effect.uz” internet nashrida tarqatilgan materiallar O‘zbekiston karate milliy federatsiyasi va A. Mullayevning sha'ni, qadr-qimmati hamda ishchanlik obro‘sini kamsituvchi ma'lumotlar deb topilgan. Sud raddiya berish majburiyatini yuklagan, biroq ma'naviy zarar bo‘yicha yuridik shaxsga ma'naviy zarar yetmasligi, unda ishchanlik obro‘siga putur yetishi mumkinligini qayd etib, kompensatsiyani faqat jismoniy shaxs foydasiga undirgan.

Ushbu yondashuv normativ jihatdan ehtiyotkor, nazariy jihatdan esa asosli ko‘rinadi. Chunki sud yuridik shaxsning ishchanlik obro‘si himoya qilinishini inkor etmagan, aksincha, uni alohida himoya obyekti sifatida tan olgan. Ammo yuridik shaxsni inson kabi ruhiy iztirob chekadigan subyekt sifatida baholamagan. Shu sababli mazkur amaliyot O‘zbekiston huquqidagi hozirgi holatni aniq ko‘rsatadi: yuridik shaxsning ishchanlik obro‘si himoya qilinadi, lekin ma'naviy zarar klassik mazmunda jismoniy shaxsga xos institut sifatida talqin qilinadi.

Bunday yondashuv hozirgi qonunchilik sharoitida asosli bo‘lsa-da, raqamli iqtisodiyot va axborot jamiyati sharoitida yetarli bo‘lmasligi mumkin. Chunki yolg‘on axborotning internetda tez tarqalishi, qidiruv tizimlarida saqlanib qolishi, ijtimoiy tarmoqlarda qayta ulashilishi va algoritmik tavsiyalar orqali keng auditoriyaga yetib borishi yuridik shaxsning obro‘siga moddiy zarar bilan to‘liq o‘lchab bo‘lmaydigan salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Shu bois huquqiy tizim yuridik shaxsning ishchanlik obro‘siga yetkazilgan ma’naviy zararni tan olishi, ammo uni qat'iy obyektiv mezonlarga bog‘lashi kerak.

5. Yuridik shaxsning reputatsion nomulkiy zarari: konseptual taklif

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

O‘zbekiston huquqi uchun eng maqbul yondashuv yuridik shaxsga “ma'naviy azob” yetkazilishi mumkin degan fikrni tan olish emas. Bunday fikr yuridik shaxsning huquqiy tabiatiga mos kelmaydi. To‘g‘riroq yo‘l – yuridik shaxsning alohida nomoddiy manfaatlari mavjudligini tan olishdir. Bunday manfaatlar qatoriga ishchanlik obro‘si, firma nomi, mijozlar ishonchi, hamkorlar oldidagi reputatsiya, investorlar va kreditorlar oldidagi ishonchlilik, tashkilotning ichki boshqaruv barqarorligi va bozordagi ijtimoiy-huquqiy mavqeyi kiradi.

Shu asosda Fuqarolik kodeksida “yuridik shaxsning ishchanlik obro‘siga nisbatan yetkazilgan nomulkiy zarar” tushunchasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu zarar turi quyidagi mazmunda tushunilishi mumkin: yuridik shaxsning ishchanlik obro‘si, firma nomi, ommaviy ishonchliligi yoki tashkiliy faoliyatiga g‘ayriqonuniy axborot tarqatish yoxud boshqa huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan, pulda aniq ifodalash qiyin bo‘lgan, biroq obyektiv holatlar bilan tasdiqlanadigan nomoddiy salbiy oqibat.

Ushbu institutning afzalligi shundaki, u FK 1022-moddasidagi “jismoniy va ma'naviy azoblar” modeliga yuridik shaxsni sun'iy kiritmaydi. Aksincha, yuridik shaxsga xos bo‘lgan nomoddiy manfaatlarni mustaqil himoya obyekti sifatida belgilaydi. Bunda kompensatsiya jazolovchi vositaga aylanmasligi kerak. U, birinchidan, buzilgan nomoddiy manfaatni huquqiy tan olishga; ikkinchidan, huquqbuzarlik oqibatlarini yumshatishga; uchinchidan, kelgusida asossiz ishchanlik obro‘siga nisbatan hujumlarning oldini olishga xizmat qilishi lozim.

6. Sudlar uchun taklif etiladigan obyektiv mezonlar

Yuridik shaxs foydasiga reputatsion nomulkiy zarar undirish imkoniyati qonunchilikda belgilansa, sudlar uni avtomatik tarzda qo‘llamasligi kerak. Aks holda, har qanday tanqid, jurnalistik surishtiruv yoki iste'molchi fikri kompensatsiya xavfi ostida qoladi. Bu esa so‘z erkinligi va jamoatchilik nazorati uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli reputatsion nomulkiy zarar qat'iy mezonlarga asoslanishi zarur.

Birinchidan, tarqatilgan ma'lumotning haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi yoki faktik asosga ega emasligi aniqlanishi kerak. Baholovchi fikr, tanqidiy mulohaza yoki subyektiv taassurotni yolg‘on fakt bilan aralashtirib yubormaslik lozim.

Ikkinchidan, ma'lumot bevosita da'vogar yuridik shaxsga aloqador bo‘lishi kerak. Umumiy soha, bozor yoki noma'lum subyektlar haqidagi tanqid yuridik shaxsning ishchanlik obro‘siga nisbatan yetkazilgan nomulkiy zararni asoslash uchun yetarli bo‘lmasligi kerak.

Uchinchidan, axborotning tarqalish ko‘lami baholanishi lozim. Bunda auditoriya hajmi, axborot tarqatilgan platforma, qayta ulashishlar soni, materialning qidiruv tizimlarida saqlanishi, u ommaviy axborot vositasi orqali yoki shaxsiy sahifada tarqatilgani e'tiborga olinadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

To‘rtinchidan, yuridik shaxs faoliyatiga real salbiy ta'sir aniqlanishi kerak. Masalan, shartnomalar bekor qilinishi, muzokaralar to‘xtashi, mijozlar yoki a'zolar sonining kamayishi, homiylik, investitsiya yoki kredit munosabatlariga salbiy ta'sir, davlat yoki nodavlat tuzilmalari bilan hamkorlikda ishonch inqirozi yuzaga kelishi shular jumlasidandir.

Beshinchidan, obro‘ni tiklash uchun qilingan xarajatlar, raddiya talab qilish, kommunikatsion choralar ko‘rish, advokatlik va media-konsalting xarajatlari kabi holatlar ham hisobga olinishi mumkin. Ammo bu xarajatlar moddiy zarar sifatida alohida baholanishi yoki reputatsion nomulkiy zarar miqdorini aniqlashda yordamchi mezon sifatida ko‘rilishi lozim.

Oltinchidan, kompensatsiya miqdori oqilonalik, adolatlilik va mutanosiblik talablariga mos bo‘lishi kerak. Yuridik fanlar doktori B.Hamroqulovning ma'naviy zarar miqdorini aniqlashda mutanosiblik mezonini qo‘llash zarurligi haqidagi pozitsiyasi aynan shu yerda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligining hozirgi holatida yuridik shaxsning ishchanlik obro‘si himoya qilinadigan nomoddiy ne'mat sifatida tan olingan. FK 99–100-moddalari yuridik shaxsning ishchanlik obro‘sini himoya qilishga imkon beradi, FK 1021–1022-moddalari esa ma'naviy zararni qoplash mexanizmini belgilaydi. Biroq ma'naviy zarar miqdorini aniqlashda jismoniy va ma'naviy azoblar, jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari kabi mezonlarning qo‘llanishi ushbu institutning asosan jismoniy shaxsga qaratilganini ko‘rsatadi.

Shu sababli yuridik shaxs foydasiga klassik ma'nodagi ma'naviy zarar undirishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tan olish nazariy jihatdan ham, normativ jihatdan ham ehtiyotkorlikni talab qiladi. Yuridik shaxs inson kabi iztirob chekmaydi, ammo u ishchanlik obro‘si bilan bog‘liq zarar ko‘rishi, ishonch inqiroziga uchrashi, tashkiliy faoliyatida nomoddiy salbiy oqibatlarga duch kelishi mumkin. Demak, O‘zbekiston huquqi uchun eng maqbul yechim – “yuridik shaxsning ishchanlik obro‘siga nisbatan yetkazilgan nomulkiy zarar” institutini shakllantirishdir.

Bunday institut yuridik shaxsga insoniy kechinma nisbatini berishga emas, balki uning faoliyati, ishchanlik obro‘si va ijtimoiy-huquqiy mavqeyiga obyektiv salbiy ta'sir ko‘rsatadigan holatlarni baholashga asoslanishi kerak. Shu orqali bir tomondan, yuridik shaxslarning ishchanlik obro‘si samarali himoya qilinadi, ikkinchi tomondan, so‘z erkinligi, tanqid huquqi va jamoatchilik nazorati bilan reputatsiyani himoya qilish o‘rtasidagi zarur muvozanat saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi I qism (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2025 y., 03/25/1025/0116-son).

2.Ҳамроқулов Б. Маънавий зиённи қоплаш асосларини такомиллаштириш: юрид. фан. док. дис.... – Тошкент: 2020.

3.European Court of Human Rights. (2000). Comingersoll SA v. Portugal, App. No. 35382/97, Grand Chamber judgment of 6 April 2000.

4.V. Wilcox, A company’s Right to Damages for Non- Pecuniary loss, Cambridge University Press 2016.

5.P. Wyszyńska-Ślufińska. Compensation for moral harm caused to a legal entity – does the new Polish Supreme Court resolution of 2023 provide a remedy for the Polish legal system? Some critical remarks in a comparative perspective. May 2024Wiadomości Ubezpieczeniowe 1(2024/1). DOI:10.33995/wu2024.1.4

6.Supreme Court of Poland. (2023). Resolution of 3 October 2023, File No. III CZP 22/23, available at: www.sn.pl (accessed 11.04.2024).

7. https://public.sud.uz/report/CIVIL_OLD